<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
<i>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</i>	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
<i>Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
<i>G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi</i>	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
<i>Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
<i>Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
<i>Iminova Z. B.</i>	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
<i>Inayatova Nargisa Nishonboyevna</i>	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
<i>Kalmuratovna Venera Sultanova</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
<i>Kamola Abdullayeva</i>	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
<i>Karimov Orif Obloqul o'g'li</i>	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
<i>Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</i>	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
<i>Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
<i>Makulov Shuxratjon Zokirovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
<i>Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
<i>Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
<i>Mansurova Umida Mansur qizi</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
<i>Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
<i>Murodov Nozimjon Olimjonovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
<i>Nafasova Jamila Turg'un qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
<i>Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</i>	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
<i>O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</i>	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
<i>Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</i>	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
<i>Ostanov Askarjon Nuriddinovich</i>	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati ..	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafruz Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish.....	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis.....	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня A2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчехра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	
Malaka oshirish jarayonida ta’lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
Amanova Durdona Kaxramonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari	1226
Berdiyeva Muhabbat Meliyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati	1229
Eshbekova Gulbahor	

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
<i>G'afforova Xurriyat Yangiboyevna</i>	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
<i>Jabbarova Dilafruz Bo'riyevna</i>	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
<i>Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna</i>	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati	1246
<i>Maxmudov Azamjon Muxtorovich</i>	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
<i>Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'ldiyor Shaxriyor Xusanovich</i>	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish	1254
<i>Piriyazova Sholpan Oteniyazovna</i>	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
<i>Raxmatov A'zam Ashur o'g'li</i>	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
<i>Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
<i>Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi</i>	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
<i>Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna</i>	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
<i>Sharipova Sarvinaz Sayid qizi</i>	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
<i>Usmonova Mohizoda Avazjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
<i>Xomidova Dilorom Abduraxmonovna</i>	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz Egamqulovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
<i>Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi</i>	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
<i>Суярова Айнура Ибодуллоевна</i>	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
<i>Kilichev Nurulla Abbosovich</i>	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
<i>Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сиббордин": педагогические условия.....	1310
<i>Нумонжоннова Фарангиз Комиловна</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli	1314
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi	1316
<i>Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari	1321
<i>Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi</i>	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
<i>Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich</i>	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyaning o'rganish va koreksiyalash	1329
<i>Azimova Aziza Baxtiyorovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari	1333
<i>Mirzayeva Dilafruz</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1337
<i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari	1342
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri	1346
<i>Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich</i>	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....	1349
<i>Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna</i>	
The Integration of Web Technologies in Language Education	1353
<i>Kadirova Feruza Hikmatullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....	1357
<i>Kosimova Gulloila Mullajonovna</i>	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....	1360
<i>Nishonova Munira Yakubjonovna</i>	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari	1364
<i>Mamirova Dilorom Tavakulovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida	1367
<i>Meliboyev Tavakkal Turg'unovich</i>	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....	1371
<i>Mexmonov Ismat Toshpo'latovich</i>	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	1375
<i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari	1379
<i>Mo'minov Durbek No'monovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari	1383
<i>Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT	1386
<i>Nizomov Feruz Raxmon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1389
<i>Nurmonova Zebo Fattaxovna</i>	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....	1392
<i>O'ktam Nosirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqiy idrokini o'stirish texnologiyalari.....	1398
<i>O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega	1402
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti	1405
<i>Quldashev Murodjon G'aniyevich</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari	1409
<i>Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi</i>	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	1412
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida)	1416
<i>Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li</i>	



Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida)	1419
Sotkulova Dildora Odinabekovna	
Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati	1423
Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova	
Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish	1427
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida	
Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar	1430
Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna	
Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli	1436
Yunusova Diloramxon Abdumajitovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari	1440
Aripova Nodira Shuxratovna	
Методы развития устной речи детей дошкольного возраста	1444
Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish metodikalari	1449
Qodirova Buzulayho Turg'unovna, Asqarova Mohidil Murodilla qizi	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA BADIY ASARGA BO'LGAN QIZIQISHNI OSHIRISH METODIKALARI

Qodirova Buzulayho Turg'unovna

Andijon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsent

Asqarova Mohidil Murodilla qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishning samarali metodikasi tahlil qilinadi. Maqolada o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan interaktiv darslar, didaktik o'yinlar, ijodiy vazifalar va vizual materiallardan foydalanish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bolalarda o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish va ularni badiiy asarlarni tushunishga yo'naltirish bo'yicha pedagogik tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga qiziqish darajasini oshirishga xizmat qiladi va amaliy pedagogik faoliyatda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, badiiy asar, o'quvchilarda qiziqish, pedagogik metodika, interaktiv darslar, didaktik o'yinlar, kitob mutolasi madaniyati.

Abstract: This article analyzes effective methods for forming and developing interest in fiction among primary school students. The article considers methods for using interactive lessons, didactic games, creative tasks, and visual materials aimed at increasing students' interest in books. Pedagogical recommendations are also provided to enhance children's motivation to read and guide them toward understanding works of art. The results of the study serve to increase the level of interest in fiction among primary school students and can be applied in practical pedagogical activities.

Key words: primary school students, fiction, student interest, pedagogical methods, interactive lessons, didactic games, book reading culture.

Аннотация: В статье анализируются эффективные методы формирования и развития интереса к художественной литературе у учащихся начальной школы. Рассматриваются методы использования интерактивных уроков, дидактических игр, творческих заданий и наглядных материалов, направленные на повышение интереса учащихся к чтению. Даны педагогические рекомендации по повышению мотивации детей к чтению и пониманию художественных произведений. Результаты исследования способствуют повышению уровня интереса к художественной литературе у учащихся начальной школы и могут быть использованы в практической педагогической деятельности.

Ключевые слова: учащиеся начальной школы, художественная литература, интерес учащихся, педагогические методы, интерактивные уроки, дидактические игры, культура чтения.

KIRISH

Badiiy adabiyot inson ruhiyatining boy manbalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat ma'naviy-axloqiy tarbiya beruvchi vosita sifatida, balki insonning fikrlash, tasavvur qilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi kuchli vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bolalik davri, ayniqsa, inson shaxsiyati shakllanadigan muhim bosqich sifatida e'tiborga loyiqdir. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va rivojlantirish, ularni kitobxonlikka rag'batlantirish zamonaviy ta'lim tizimida muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bolalar o'qish jarayonida kitobni faqat ma'lumot olish vositasi sifatida emas, balki hissiy va estetik tajriba manbai sifatida qabul qilishlari lozim. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarda badiiy asarga bo'lgan qiziqishning shakllanishi nafaqat ularning ijodiy va intellektual salohiyatini oshiradi, balki shaxsiyati va ijtimoiy muhit bilan muloqotini boyitadi. Shu bois, pedagogik jarayonlarda kitobxonlikni rag'batlantirish metodikalari alohida e'tibor talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari badiiy adabiyotga qiziqishni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, bolalar bu davrda qahramonlar orqali empatiya va hissiy tajribalarni o'rganadilar. Shu bilan birga, bolalarning tasavvur qobiliyati rivojlanadi, ularning nutq

madaniyati boyiydi va ijodiy fikrlash ko'nikmalari mustahkamlanadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf pedagoglari badiiy asarlar bilan ishlash jarayonida pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirishlari zarur.

Badiiy asarga bo'lgan qiziqishning shakllanishi ko'plab omillarga bog'liq. Birinchi navbatda, bu jarayonda pedagogning uslubi, darsning mazmuni va metodik jihatlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'quvchilarning yoshiga mos kitoblarni tanlash, ular bilan interaktiv usullarda ishlash, qahramonlar va voqealar bilan bog'liq muhokamalar o'tkazish bolalarda doimiy qiziqishni saqlashga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish – audio-kitoblar, multimediali taqdimotlar, animatsion materiallar – bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni oshirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Ta'limning bugungi kun talablariga ko'ra, kitobxonlik faqat mustaqil o'qish bilan cheklanmasligi kerak. Pedagogning mahorati va metodik yondashuvi bolalarning badiiy asarga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, pedagoglar boshlang'ich sinf darslarida nafaqat kitobni o'qitish, balki uni bolaning hissiy va intellektual dunyosiga singdirish jarayonini yaratishlari lozim. Masalan, hikoya yoki she'rni o'qib berishdan so'ng savol–javob, drammatizatsiya, rasm chizish, hikoya yozish kabi faoliyatlar o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi va ularni kitob bilan qiziqishga jalb qiladi.

O'quvchilarda badiiy asarga bo'lgan qiziqishni shakllantirish metodikalari ko'p qirrali bo'lib, ular psixologik, pedagogik va didaktik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Psixologik nuqtayi nazardan, bolalarni ijobiy ruhiy muhit bilan ta'minlash, ularning qiziqishlarini rag'batlantirish va o'z–o'zini ifoda etish imkoniyatlarini yaratish zarur. Pedagogik yondashuv sifatida esa interaktiv dars usullari, rolli o'yinlar, guruh ishlari va ijodiy vazifalar bolalarda badiiy asarga bo'lgan e'tiborni oshiradi. Didaktik jihatdan esa darslar mazmuni, o'quv materiali va metodik vositalar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, ota–onalar va maktab muhiti ham bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Uyda o'qish odati, birga kitob o'qish, kitoblar bilan bog'liq ijodiy faoliyatlar – bularning barchasi bolaning badiiy asarga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shu sababli, pedagoglar va ota–onalar o'rta-sida hamkorlikni tashkil etish va bolalarni kitobxonlikka rag'batlantirish bo'yicha umumiy strategiyalar ishlab chiqish muhimdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, badiiy asarga bo'lgan qiziqishning shakllanishi nafaqat bolaning bilim darajasini oshiradi, balki uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Kitob o'qish orqali bolalar dunyoqarashini kengaytiradi, axloqiy va estetik qadriyatlarni o'rganadi, muloqot va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf pedagoglarining vazifasi shundan iboratki, ular o'quvchilarda badiiy asarga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va uni muntazam ravishda rivojlantirishga ko'maklashsin.

Bugungi kunda badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirishning zamonaviy metodikalari an'anaviy dars usullaridan farq qiladi. An'anaviy usullar ko'proq ma'lumot berishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy metodik yondashuvlar o'quvchining faolligi, ijodiy izlanishlari va interaktiv ishtirokini ta'minlaydi. Masalan, hikoya asosida dramatik sahna ko'rsatish, multimediali materiallardan foydalanish, hikoya qahramonlari haqida suhbatlashish, o'quvchilarga o'z hikoyalarini yaratishga imkon berish – bularning barchasi bolaning badiiy asarga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Shu bilan birga, badiiy asarga bo'lgan qiziqish nafaqat kitob o'qish orqali, balki bolalar ijodiy ishlarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, rasmlar chizish, she'rlar yaratish, hikoyalar yozish, musiqiy ijod bilan bog'liq faoliyatlar bolalarda ijodiy fikrlash va badiiy didni rivojlantiradi. Pedagoglar bu faoliyatlarni dars jarayoniga integratsiya qilishi, o'quvchilarning qiziqishlarini kuzatishi va rag'batlantirishi muhimdir.

Shuningdek, badiiy asarga bo'lgan qiziqish bolalarning nutq madaniyati va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Hikoya yoki darslik matnlarini tahlil qilish, savol–javob o'tkazish, o'z fikrini bayon etish bolalarning nutq qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini oshiradi. Shu sababli, boshlang'ich sinf pedagoglari darslarni rejalashtirishda bu jihatlarni hisobga olishlari lozim.

Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni shakllantirish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda metodik yondashuvlar, pedagogik faoliyat va ota–ona hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, pedagogik va metodik tadqiqotlar, zamonaviy metodik vositalar va interaktiv yondashuvlar asosida bolalarda badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish – bu murakkab, lekin zarur pedagogik jarayon. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik, psixologik va didaktik yondashuvlarni uyg'unlashtirish, interaktiv va ijodiy metodikalarni qo'llash, ota–ona va maktab hamkorligini ta'minlash orqali o'quvchilarda badiiy asarga bo'lgan doimiy qiziqish hosil qilish mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishga, nutq madaniyati va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan mahalliy tadqiqotlar, avvalo, metodik yondashuvlarning mazmuni va samaradorligini ko'rsatadi. Ahmedova boshlang'ich sinflarda kitobga qiziqtirish metodikasini o'rgangan bo'lib, u bolaning yosh xususiyatlariga mos badiiy matn tanlash, interaktiv usullar qo'llash va vizual materiallardan foydalanish o'quvchi motivatsiyasini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Rasulov esa maktab yoshidagi bolalarda badiiy adabiyot bilan ishlash jarayonining psixologik asoslarini tahlil qilib, empatiya, qahramonlarga identifikatsiya va hissiy tajriba o'quvchilar qiziqishining shakllanishida hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Pedagogik metodikalar bo'yicha Tursunova boshlang'ich ta'limda interaktiv usullarni qo'llash samaradorligini asoslab, guruh ishlari, rolli o'yinlar, dramatizatsiya va ijodiy topshiriqlar bolalarda badiiy asar mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qilishini qayd etadi. Karimova esa bolalar adabiyoti va didaktik o'yinlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarda nutq madaniyatini, estetik didni va matnni idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishini yoritadi. Akhmedov va Islomovning tadqiqotlari ham darsda ijodiy faoliyatlarni – rasm chizish, hikoya yaratish, insaytlar berish – qo'llash o'quvchilarni badiiy asarga yaqinlashtirishini ilmiy asoslaydi.

Xorijiy olimlar – Vygotskiy, Piaget va Bruner – bolaning fikrlash jarayoni, tasavvur, o'yin faoliyati va madaniy tajriba orqali rivojlanishini izohlagan bo'lib, ularning nazariyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asar bilan ishlash metodikalarini ishlab chiqishda muhim asos vazifasini bajaradi. Xususan, Vygotskiyning yaqin rivojlantirish zonasi, Piagetning o'yin faoliyati haqidagi qarashlari va Brunerning madaniy ta'lim konsepsiyasi o'quvchini faol ishtirokchi sifatida ko'rish zarurligini ta'kidlaydi. National Reading Panel tomonidan berilgan ilmiy-tadqiqot xulosalari esa o'qishga motivatsiya, tushunishga asoslangan o'qish, ovoz chiqarib o'qish va vizual resurslarni qo'llash bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini sezilarli oshirishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Badiiy asarga bo'lgan qiziqishni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun metodologik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. "Metodologiya" so'zi, odatda, tadqiqot va pedagogik jarayonlarda qo'llaniladigan usullar va prinsiplarning tizimli ifodasi sifatida tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik va badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish metodikalari psixologik, pedagogik va didaktik komponentlarni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologik yondashuvlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, asosan, 6–10 yoshdagi bolalardan iborat bo'lib, bu yosh davri bolalarning hissiy va aqliy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli, metodik jarayonda psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarur. Psixologik yondashuvlar bolalarda badiiy asarga qiziqishning tabiiy shakllanishini ta'minlaydi va ularni dars jarayoniga faol jalb qiladi.

1. Empatiya va identifikatsiya – bolalar hikoya qahramonlari bilan o'zlarini solishtirish va ularga o'xshash xatti-harakatlarni qabul qilish orqali hissiy bog'lanishni o'rganadilar. Shu nuqtayi nazardan, darslarda qahramonlarning hayoti va tajribasini muhokama qilish, ular bilan bog'liq dramatizatsiyalar o'quvchilarda kitobga qiziqishni kuchaytiradi.
2. O'yin usuli – o'yin bolalar uchun tabiiy faoliyat turi bo'lib, ularning diqqatini jalb qiladi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va yangi bilimlarni osonroq qabul qilishiga yordam beradi. Masalan, hikoyalarni dramatizatsiya qilish, rolli o'yinlar o'tkazish, hikoya qahramonlarini tasvirlash orqali bolalarda badiiy asarga bo'lgan qiziqish oshadi.
3. Motivatsiya va rag'batlantirish – pedagoglar bolalarni kitob o'qishga rag'batlantirish uchun ijobiy motivatsiya shakllantirishlari lozim. Masalan, o'quvchilarga hikoya asosida rasm chizish, o'z hikoyasini yozish yoki qisqa dramatik sahnalar yaratish vazifalarini berish ular uchun rag'bat bo'ladi.

Pedagogik yondashuvlar

Pedagogik yondashuvlar o'quv jarayonini tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf pedagoglari darslarni faqat bilim berish shaklida emas, balki bolaning hissiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlaydigan jarayon sifatida olib borishlari lozim.

1. Faol ta'lim usullari – bolalarni darsga faol jalb qilish uchun interaktiv metodlar qo'llaniladi. Masalan, guruh ishlari, savol-javob, rolli o'yinlar, dramatizatsiya, hikoya yaratish mashg'ulotlari orqali o'quvchilar faollashadi va badiiy asarga qiziqishlari oshadi.



2. Differensial yondashuv – bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olish, ularning qiziqish va imkoniyatlariga mos vazifalar berish metodik samarani oshiradi. Masalan, ba'zi bolalar vizual yordamlar orqali yaxshiroq tushunadi, boshqalari esa og'zaki tushuntirish yoki dramatik faoliyat orqali badiiy asarni qabul qiladi. Shu nuqtayi nazardan, metodik materiallar va dars usullarini individual xususiyatlarga moslash muhimdir.
3. Integratsiyalashgan yondashuv – badiiy asarni o'qitishda turli fanlar bilan bog'lash bolalarda umumiy dunyoqarashni rivojlantiradi. Masalan, hikoyadagi mavzularni san'at, musiqa yoki tabiat fanlari bilan bog'lash orqali o'quvchilarning qiziqishi yanada kuchayadi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuv ijodiy fikrlash va turli ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Didaktik yondashuvlar

Didaktik yondashuvlar o'quv materialini tuzish va darsni tashkil etishda qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars mazmuni sodda, qiziqarli va yoshga mos bo'lishi kerak. Didaktik metodikalar bolalarda badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

1. Hikoya va matn tanlash – bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, qisqa va tushunarli hikoyalarni tanlash zarur. Hikoyalar mavzusi bolalarga qiziq bo'lishi, ularni hissiy va axloqiy tajriba bilan boyitishi muhimdir. Masalan, do'stlik, halollik, jasorat kabi mavzular bolalar hayotiga yaqin va oson qabul qilinadigan mavzulardir.
2. Vizual va multimediali materiallar – rasmlar kitoblar, audio–kitoblar, animatsion materiallar dars jarayonini qiziqarli qiladi va bolalarning e'tiborini saqlashga yordam beradi. Masalan, hikoyani audio shaklda tinglash yoki multimediali taqdimot orqali voqealarni ko'rish bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni oshiradi.
3. Ijodiy faoliyat – o'quvchilarga hikoya asosida rasm chizish, she'r yozish, dramatik sahnalar yaratish kabi vazifalar berish ularni faollashtiradi va badiiy asarga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat bolalarning individual qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon beradi.

Zamonaviy texnologiyalar va metodik vositalar

Hozirgi davrda pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni oshirishda samarali hisoblanadi. Kompyuter dasturlari, interaktiv doskalar, elektron kitoblar, audio va video materiallar darsni boyitadi va bolalarning faolligini oshiradi.

1. Audio–kitoblar va multimediali hikoyalar – bolalar hikoyalarni tinglash yoki ko'rish orqali qiziqishni oshiradi. Masalan, o'quvchilar o'zlari yoqtirgan hikoya qahramonini tinglab, voqeani tasavvur qiladilar, bu esa badiiy asarga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi.
2. Interaktiv dasturlar va o'yinlar – o'quvchilarga hikoya qahramonlari bilan bog'liq mini–o'yinlar va interaktiv mashqlar orqali faol ishtirok imkonini berish metodik samarani oshiradi. Shu usul bolalarda kitobga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani mustahkamlaydi.
3. Onlayn kutubxonalar va resurslar – elektron kutubxonalar orqali o'quvchilar turli janrdagi badiiy asarlarni tanlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu ularga mustaqil ravishda kitob o'qish odatini shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogik faoliyat va ota–ona hamkorligi

Badiiy asarga bo'lgan qiziqishning shakllanishida nafaqat pedagogning, balki ota–onaning ham roli muhimdir. Uyda kitob o'qish odati, birga kitob o'qish va ijodiy faoliyatlar bolaning qiziqishini rag'batlantiradi. Pedagog va ota–ona hamkorligi orqali o'quvchilar kitobxonlikni yanada qiziqarli va samarali qabul qiladilar.

1. Uyda kitob o'qish odati – ota–onalar bolaga o'qishning qiziqarli ekanligini ko'rsatishi va birga kitob o'qishi muhimdir. Shu orqali bola o'qish jarayonini ijobiy tajriba sifatida qabul qiladi.
2. Kitob bilan bog'liq ijodiy mashg'ulotlar – o'quvchilar hikoya asosida rasm chizish, qisqa sahnalar yaratish, o'z hikoyalarni yozish kabi mashg'ulotlarda ishtirok etadilar. Bu ularni kitobga qiziqishga rag'batlantiradi va badiiy tafakkurini rivojlantiradi.
3. Pedagog–ota–ona muloqoti – ota–onalar bilan muntazam maslahatlashuvlar bolalarning qiziqishi va muvaffaqiyatlarini kuzatish imkonini beradi. Shu orqali pedagoglar darslarni yanada samarali tashkil etishlari mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Metodologiya bo'limida ko'rib chiqilgan psixologik, pedagogik va didaktik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar hamda ota-onalar hamkorligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda asosiy vositalar hisoblanadi. Bu metodik yondashuvlar bolalarni faollikka jalb qiladi, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantiradi, shuningdek, kitob o'qish odatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobga qiziqtirish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2018.
2. Rasulov M. Maktab yoshidagi bolalarda badiiy asarga qiziqishni rivojlantirish. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.
3. Tursunova D. Boshlang'ich sinf darslarida interaktiv metodlarni qo'llash. – Toshkent: Pedagogik innovatsiyalar, 2019.
4. Karimova N. Bolalar adabiyoti va didaktik o'yinlar. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
6. Piaget J. Play, Dreams and Imitation in Childhood. – New York: Norton & Company, 1962.
7. Bruner J. S. The Culture of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996.
8. Akhmedov S. Kitob mutolasi madaniyati va yosh o'quvchilar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
9. Islomov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan badiiy darslarni samarali tashkil etish. – Toshkent: Pedagogik ilmiy nashrlar, 2019.
10. National Reading Panel. Teaching Children to Read: An Evidence-Based Assessment of the Scientific Research Literature on Reading and Its Implications for Reading Instruction. – Washington, DC: National Institute of Child Health and Human Development, 2000.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.